

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13623927>

**Choriyeva Zamira Tirkashevna.**

*Turin akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada akademik litsey o'quvchilarini ona tilini chuqur o'rginishga qiziqtirish va uni bugungi kundagi ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar.** *Ona tili, islohot, muloqot, vazifa, akademik litsey, barkamol avlod, ahamiyat, fuqaro.*

**Abstract.** *This article talks about the interest of academic lyceum students in deep study of their native language and its importance today.*

**Key words.** *Mother tongue, reform, communication, mission, academic high school, mature generation, importance, citizen.*

**Аннотация.** *В данной статье говорится о заинтересованности академических лицеистов в углубленном изучении родного языка и его значении сегодня.*

**Ключевые слова.** *Родной язык, реформа, общение, миссия, академический вуз, зрелое поколение, значимость, гражданин.*

“Davlat tili to'g' risida”gi Qonun va istiqloq tufayli o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimizning keyingi rivoji uchun keng ufqlarni ochdi. Ona tilimiz respublikamizning asosiy muomala, aloqa vositasiga aylandi, ilmiy, badiiy, rasmiy til sifatida keng miqyosda qo'llana boshladi. O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Davlat tili haqida”gi Qonuni tomonidan belgilangan davlat tili sifatidagi maqomi ona tilimizning ijtimoiy vazifalari va rasmiy-idoraviy muloqot yuritishdagi mavqei yanada kengaytirishning mustahkam asosi bo'lib, yoshlarga milliy istiqloq g'oyalarini, vatanparvarlik, elimizga sadoqat tuyg'ularini singdirishda, ularning barkamol avlod bo'lib yetishishlari va ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha jabhalarida keng faoliyat olib borib, yurtimizning ravnaqi uchun xizmat qilishlarida davlat tili ta'limining ahamiyati nihoyatda kattadir.

Ona tili o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyektivat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi.

O'zbekistonda yashovchi barcha fuqarolar respublikamizning davlat tilida erkin muloqot yurita olishlari, o'z fikrlarini og'zaki va yozma bayon qila olishlari respublikamiz

aholisining bahamjihatlik va do'stlikda yashashlari, birgalikda mehnat qilib vatanimiz iqtisodini yanada yuksaltirishlarining muhim omillaridan biridir. Hozirgi kunda respublikamizda yashovchi turli millatlarga mansub fuqarolar o'zbek tilini faqat so'zlashuv og'zaki muloqot vositasi sifatidagina bilishning kifoya qilmasligini, davlat tilida to'g'ri gapirish va to'g'ri yoza olishlari, turli mavzularda va ayniqsa o'z mutaxassisligi doirasida o'z fikrini erkin bayon eta olishlari hamda davlat tilida yozma rasmiy ish yuritish malakalariga ega bo'lishlari zarurligini e'tirof etmoqdalar. O'zbek xalqining madaniyati va urf-odatlarini bilish, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni e'zozlash mamlakatimizda yashovchi boshqa millatlarning m a'naviy burchi va hayotiy ehtiyojiga aylanmoqda. Ma'lumki, respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim 7 tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida olib boriladi. O'zbek tilining respublikamizdagi ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta'lim maktablarida va uzluksiz ta'lim tizimining keyingi bosqichlarida esa ta'lim rus va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan guruhlarda davlat tili sifatida o'qitilishidan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizda yashovchi turli millatlar farzandlarining o'zbek tilini kundalik turmushda va ijtimoiy faoliyati jarayonida turli insonlar o'rtasidagi og'zaki va yozma muloqot yuritish ko'nikmalarini tarkib topdirishdan iborat.

Ta'limning tarbiyaviyligi prinsipi yosh avlodni har tomonlama kamolotga etkazishni nazarda tutadi. Ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarga milliy g'oya, ona Vatanga sadoqat, tabiatga muhabbat, kishilarga hurmat, ehtiram, yaxshilik, adolatli bo'lish kabi ijobiy xususiyatlar singdiriladi. Ona tili darslarida yoshlarni tarbiyalash yo'llari ko'p:

- har bir mavzu va bo'limning ta'limiy imkoniyatlarini to'la ishga solish;
- tanlangan matnlarning o'rganilayotgan til hodisasiga va sharqona tarbiya yunalishlariga to'la moslashtirish;
- darslikda berilayotgan ma'rifiy matnlar ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlash shular jumlasidandir.

Akademik litseyda o'quvchilar ona tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o'ta zarur bo'lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantiriladi. Ular ona tili imlosi, talaffo'zi, yozma nutqda tinish belgilarni to'g'ri ishlatish yuzasidan zarur ko'nikma va malakalar bilan taminlanadi. Ayni vaqtda ona tili mashg'ulotlari o'quvchi shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir.

Respublikamizda ona tilimizning davlat tili sifatidagi nufuzini yanada ko'tarish va o'zbek tilini uzluksiz ta'lim bosqichlarida o'qitilishi sifatini yaxshilashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ona tilimizning respublikamiz hududida millatlararo asosiy muloqot vositasiga aylanib borishi ko'p jihatdan umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kollejlarda hamda oliy ta'lim tizimida o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilining o'qitilishi, ularda amal qilinayotgan o'quv dasturlari va darsliklar mazmuniga bog'liq.

Ona tili darsligi uchun tanlangan mantlar ta'limiy va tarbiyaviy yo'nalishda, rangbarang mavzularda, shaklan va mazmunan mukammal, mantiqan to'g'ri, tili soda va ravon, o'qituvchi uchun tushunarli bo'lishi maqsadga muvoviqdir. Ana shundagina matn,

matn yaratish tizimi va matn tahlili o'quvchi uchun zarur bo'lgan natijani beradi – kommunikativ savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida bilimlar, ko'nikma va malakalami kimga berish, ya'ni kimlar ta'lim subyekti ekanligi nihoyatda muhim bo'lib, shundan kelib chiqqan holda til ta'limida tilni ona tili sifatida o'qitish va chet tili (yoki ikkinchi til) sifatida o'qitish farqlanadi. Til o'qitishda bu juda muhim bo'lib, ta'lim mazmuniga ham, ta'lim metodlariga ta'sir qilmay qolmaydi. Tilni ona tili sifatida o'qitishda til o'z egalariga, shu tilda so'zlashuvchilarga o'qitiladi, ya'ni ta'lim subyektlari shu tilda nutqqa ega bo'lgan insonlar hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. X.Ne'matov, O.Bozorov. Til va nutq. Toshkent. " O'qituvchi" 1993 yil.
2. Muxitdinova X.S. O'zbek tilini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari (monografiya). - T.: V N ESHINVEST, 2021.
3. E.Agzamov. Ona tilidan muammoli dars, " Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 1993 yil 3-4 qo'shma soni. 27-30 betlar.
4. Махмудов Н. Тил таълими ва стилистика // Ж. Тил ва адабиёт таълими. - Тошкент, 2009. - 1-сон. - 3-4-б.
5. YoTdoshev R.A. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini ulami ko'p gapirtirish orqali o'stirish metodikasi. - Toshkent: I an va texnologiyalar. - 2012. - 200-b